

**NEMIS TILIDA OTLARNING SEMANTIK  
TIZIMIDAGI MA'NO MUNOSABATLARI****Qodirova Shohsanam Boboxon qizi, Urganch davlat universiteti  
doktoranti****MEANING RELATIONS OF NOUNS IN THE  
SEMANTIC SYSTEM OF THE GERMAN  
LANGUAGE****Kadirova Shokhsanam Boboxon qizi, a doctoral student of  
Urganch State University****ЗНАЧИТЕЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ  
СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В СЕМАНТИЧЕСКОЙ  
СИСТЕМЕ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА****Кадирова Шохсанам Бобохон кызы, докторант Ургенчского  
государственного университета**<https://orcid.org/0000-0003-2098-8901>**e-mail:  
[Shohsanam.qodirova25@  
gmail.com](mailto:Shohsanam.qodirova25@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola nemis tilidagi otlarning leksik-semantik tizimi ko'rib chiqiladi. Otlarda giperonim va giponimya holatlari, sinonimya, antonimya holatlari misollar yordamida tahlil qilinadi, ularning turlari, darajalari tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** Giperonim, giponim, antonim, sinonim, leksema, paradigmatic munosabat, sema, ideografik sinonim.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается лексико-семантическая система существительных в немецком языке. С помощью примеров анализируются случаи гиперонимии и гипонимии, синонимии, антонимии в существительных, анализируются их виды и уровни.

**Ключевые слова:** гипероним, гипоним, антоним, синоним, лексема, парадигматическое отношение, sema, идеографический синоним.

**Abstract:** This article examines the lexical-semantic system of nouns in the German language. Cases of hyperonymy and hyponymy, synonymy, antonymy in nouns are analyzed with the help of examples, their types and levels are analyzed.

**Key words:** hyperonym, hyponym, antonym, synonym, lexeme, paradigmatic relation, sema, ideographic synonym.

**KIRISH.** Ma'lumki, til murakkab tizim bo'lib, unda so'zlar bir-biridan ajralgan mexanik birliklar majmuasini hosil qilmaydi, balki grammatik va leksik-semantik munosabatlar orqali o'zaro bog'lanib, turli leksik-semantik guruhlariga birlashadi. Har bir tilda ma'lum bir rivojlanish bosqichida so'zlarning semantik o'ziga xos guruhlari mavjud bo'lib, bu ikki yoki undan ortiq tillarni qiyosiy o'rganish orqali ochiladi. So'zlarning bunday semantik guruhlariga leksik-semantik

guruhlar, sinonimik qatorlar, antonimik juftliklar, giperonim va boshqalar kirishi mumkin. Bugungi kunda ushbu tadqiqot obyektiga qiziqish ushbu leksik guruh tarkibining asrlar davomida nisbiy barqarorligi va leksikografik manbalarda yetarli darajada yoritilishi bilan izohlanadi. Biroq, ular hali yetarlicha o'rganilmagan, buning natijasida nemis tilida otlarning semantik tizimini o'rganishga qiziqish uyg'ongan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Tadqiqot materiali nemis tilidagi otlar bo‘lib, ular “Duden – das große Wörterbuch der deutschen Sprache”[2], “Langenscheidt”[6], “Wörterbuch der Synonyme und Antonyme”[4] lug‘atlaridan tanlab olingan hamda nemis olimlarining leksikologiya va semantikaga bag‘ishlangan asarlari asosida yoritilgan. Tahlil jarayonida semantik-uslubiy, kontekstologik tahlil metodi, komponent tahlil, chog‘ishtiruv metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar ishga chuqurroq yondashishga xizmat qiladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Leksik-semantik tizim deganda paradigmatic munosabatlar orqali umumiy bog‘langan leksemalar yig‘indisi tushuniladi. Paradigmatic munosabatlar deganda til tizimidagi bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlarning sememalari o‘rtasidagi munosabatlar tushuniladi, ular bir xil kontekstda yuzaga kelishi va shu kontekstda bir-birini o‘zaro aniqlashi yoki istisno qilishi mumkin. Bu birliklar qarama-qarshi ma‘no munosabati bilan bog‘lanadi: (1) Mann – Mensch, (2) Mann – Frau, (3) Mann – Junge, (4) Mann – Arbeiter, (5) Mann – Offizier. Bu besh paradigma kontekstsiz odam leksemasining semantikasini aniqlash imkonini beradi. Birinchi paradigma leksemani “jonli mavjudot turi”, ikkinchi paradigma – “jins”, uchinchi paradigma – “yosh”, to‘rtinchi hamda beshinchi paradigmalar – “mashg‘ulot, kasb” xususiyatiga qarab tavsiflaydi. Paradigmatic munosabatlar bir xil so‘z turkumidagi so‘zlar o‘rtasida mavjud bo‘ladi. Sintagmatik aloqalar so‘z turkumidagi, gapdagi, kontekstdagi so‘zlar o‘rtasida, ya‘ni nutqdagi leksemalar yangilanganda o‘rnatiladi. Paradigmatika va sintagmatika orasidagi farq F.de Sossyurga borib taqaladi. Vertikal (paradigmatik) va gorizontal (sintagmatik) munosabatlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Der Mann liest ein Buch / eine Zeitung / eine Zeitschrift...

Die Frau schreibt einen Brief.

Leksik tizimni o‘rganishda giperonom va giponimlar ham alohida o‘rin egallaydi. Giperonom va giponimlar o‘rtasidagi munosabat mantiqiy bog‘liqlikka asoslanadi. Ushbu iyerarxiyada umumiy tushuncha va quyi tushunchalar o‘rtasida farqlanadi. Umumiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar giperonimlar bo‘lib, quyi tushunchalarni

anglatuvchi so‘zlar giponimlar deyiladi. Giperonimning ma‘nosi giponimga nisbatan kengroq va mavhumroq, giponimning ma‘nosi esa giperonimnikiga nisbatan tor va aniqroq bo‘ladi. Terminlar ierarxiyasida giponimlar ketma-ketlikda bir-biriga va yuqori giperonimga kiritiladi (66, Christiane Wanzeck, Lexikologie). Buni quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz:

Giperonim	Giponim
Blume	Nelke, Rose, Tulpe
Lebewesen	Tier, Mensch
Tier	Haustier, Wildtier
Haustier	Vieh
Vieh	Rind
Rind	Kuh, Stier, Kalb [3, 105]

Ushbu sistemada so‘z qanchalik chuqur bo‘lsa, uning ma‘no doirasi shunchalik torayadi va mazmuni shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ma‘no doirasi qanchalik keng bo‘lsa, uning mazmunida shunchalik kam sema bo‘ladi. Giperonimga tobe bo‘lgan leksemalar “kogiponim” deyiladi: Obst (Giperonim) – Apfel, Birne, Pflaumen. (Kohyponyme).

Nemis tilida otlar semantikasini tahlil etar ekanmiz, sinonimlarga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Leksik sinonimlar ma‘nolari bir xil yoki o‘xshash, lekin fonetik shakllari turlicha bo‘lgan so‘zlardir. Onomasiologik (mazmun) nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘liq yoki bir xil ma‘noga ega so‘zlar sinonimlar deb qaraladi (sememalar). Semasiologik jihatdan (shakl jihatidan) sinonimlar bir va bir xil denotatning turli lisoniy belgilari hisoblanadi. Sinonimiya bu sinonimlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan bir xillik yoki ma‘no o‘xshashligining paradigmatic munosabatidir. So‘zning har bir ma‘nosi semalar to‘plamini ifodalaganligi sababli, ko‘pchilik semalar sinonimlarga mos kelishi kerak va ular o‘rtasidagi farqlar konseptual, konnotativ yoki stilistik bo‘lishi mumkin. Demak, sinonimlar leksema (sememalar) bo‘lib, ular o‘zagi bir xil ma‘noli bo‘lib, periferik denotativ yoki konnotativ semalar yoki har ikkalasi bilan farqlanadi. Sinonimlarning butunligi sinonimik qator (sinonimik guruh) deyiladi. Sinonimik qator – ma‘no o‘ziga xoslik yoki semantik tenglik asosida qurilgan tizimli xususiyatga ega bo‘lgan leksemalarning tarixan paydo bo‘lgan, lekin hozirda sinxron guruhlanishi hisoblanadi. Sinonimik qator odatda dominantga ega (asosiy sinonim) va bu leksema semantik jihatdan eng aniq, stilistik jihatdan neytral va boshqa so‘zlarga qaraganda keng

tarqalgan bo‘ladi. Dominant so‘z konseptual va stilistik jihatdan sinonimik qator boshqa a‘zolarining o‘zgarishligidir, masalan: Schnelligkeit(D)–Geschwindigkeit-Schnelle-Schnellheit-Tempo. Odatda sinonimlar to‘liq (absolyut) sinonimlar va to‘liq bo‘lmagan (semantik) sinonimlarga farqlanadi. Tilda mutlaq sinonimlar juda kam uchraydi [2, 97]. Bular odatda xalqaro so‘zdan olingan juft so‘zlar va uning nemis tilidagi tarjimasini, masalan, Radio – Rundfunk, Sprachwissenschaft – Linguistik. Qisman sinonimlar o‘z navbatida ideografik (kontseptual) va uslubiya bo‘linadi. Ideografik sinonimlar kontseptual o‘zakning muhim ma‘no xususiyatlariga ko‘ra bir-biriga mos keladi, lekin ma‘lum bir mazmun bilan bog‘liq ma‘no xususiyatlari (sema) yuzasidan qo‘llanilishda farqlanadi. Masalan: Foydalanishdagi o‘xshashliklar va farqlarni quyida ko‘rib chiqamiz: eine flache, steil abfallende Küste, an der Küste entlangfahren, ein breiter, schmaler, steiniger Strand, sonnige, überschmutzte, überfüllte Strände, am Strand des Meers etc. Qoidaga ko‘ra, ideografik sinonimlar turli xil denotatsiyalarga tegishli bo‘lsa-da, ular semaning muhim qismini egallaydi. Stilistik sinonimlar o‘ziga xos stilistik tabiati, o‘ziga xos ekspressiv stilistik bo‘yoqdorligi yoki turli funksional uslublarda ishlatilishi bilan tavsiflanadi. Neytral so‘zlar hissiy jihatdan bo‘yoqdor yoki funksional jihatdan, stilistik jihatdan belgilangan ifodalarga qarama-qarshidir. Stilistik sinonimlar bir xil denotatsiyaga ishora qiladi va shuning uchun umumiy denotativ semalarga ega, lekin konnotativ semalar bilan farqlanadi. Ko‘pincha sinonimik qatordagi sinonim leksemalar o‘rtasidagi farqlar ham ideografik, ham stilistikdir [5, 76]: Junggeselle – Einspänner – Jüngling – Single – Unverheirateter – Alleinstehender. Hududiy (mintaqaviy) dubletlar sinonimlarning maxsus guruhi hisoblanadi: Fleischer / Metzger, Sonnabend / Samstag, Treppe / Stiege [6, 745].

Sinonimlar bilan bir qatorda Antonimlarni ham ko‘rib chiqamiz. Antonimlar – qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar (sememalar). Antonimlar qarama-qarshilikning mantiqiy, kognitiv kategoriyasiga asoslanganligi uchun juft holda uchraydi. Haqiqatda qarama-qarshilik mumkin bo‘lmagan joyda antonimlar ham mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun obyekt nomlari (stol, uy, kino) uchun antonimlarni izlash ma‘nosiz bo‘ladi [1,76]. Antonimlar mohiyatan bir xil semalarga ega, ular ma‘no

xususiyatlarining o‘zagida bir-biriga mos keladi, lekin inkorda farqlanadi: Kälte – Wärme, Recht – Unrecht. Ba‘zan affiksalar bilan ham ifodalanadi: Gerechtigkeit – Ungerechtigkeit [4,397], Freundlichkeit – Unfreundlichkeit, Feindlichkeit-Freundschaft. Antonimiyaning kognitiv asosi darajalanadigan so‘zlar hisoblanadi. Demak, antonimlar ayrim fe‘llar va sifatlar/ravish va ulardan yasalgan otlar uchun xosdir: geben – nehmen, verheiratet – ledig, gesund – krank. Sifatlanishiga nisbatan antonimlarni nol nuqtadan ma‘lum qarama-qarshi nuqtagacha joylashtirish mumkin: kalt – lau – warm – heiß. Bundan ko‘rish mumkinki, sifatlar o‘z graduinimik semasiga ham ega. Antonimlarning uchta tasnifi mavjud bo‘lib, qarama-qarshi ma‘nolarning ko‘lamiga ko‘ra, barcha sememalar bir-biriga zid bo‘lgan yoki so‘z yasash yo‘li bilan vujudga kelgan antonimlar bilan bir yoki bir nechta sememasi qarama-qarshi bo‘lgan qisman antonimlar farqlanadi [7, 237]. Ko‘p ma‘noli so‘zlarda, turli sememalar uchun turli xil antonimlar mavjud: finster (Farbe) – hell, licht; finster (Gesichtsausdruck) – heiter, freundlich; finster (Ruf) – sauber, redlich. Mantiqiy qarama-qarshilik turiga ko‘ra antonimlar uch xil bo‘ladi. Qarama-qarshi antonimlar diametral zid tushunchalarni o‘z ichiga oladi, ular orasida oraliq darajalar yotadi: Armut – Reichtum, Liebe – Hass, jeder. Bir so‘zning inkori ikkinchisining tasdiqlanishini anglatmaydi. To‘ldiruvchi antonimlar esa, bir so‘zning inkori ikkinchi leksemaning tasdiqlanishiga olib kelishini talab qiladi: Mädchen – Junge, Muttersprache – Fremdsprache [4,357]. Qarama-qarshi antonimlar mos tizimidagi ikkita turdagi atamalardir. Ular turli nuqtayi nazardan bir xil vaziyatni aks ettiradi: Kauf – Verkauf, Rede – Schweigen, Ankunft – Ausfahrt. Morfologik tuzilishiga qarab, bir ildizli va turli ildizli antonimlar farqlanadi: Zuverlässigkeit-Unzuverlässigkeit, Treue-Untreue; Wahrheit – Lüge, Lust – Frust.

**XULOSA.** Xulosa qiladigan bo‘lsak, nemis tilida otlar – bu maxsus lisoniy struktura hisoblanadi. Leksik maydon tarkibiy qismlari o‘z o‘rnini kamdan-kam o‘zgartiradi va tilda uzoq vaqt davomida qo‘llaniladi. Giperonim-giponim munosabati leksemalarni guruhlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu munosabat asosida leksemalar uyalariga, uyalar kattaroq bo‘lgan guruhlariga, guruhlar esa, o‘z navbatida, leksik-semantik maydonlarga

birlashtiriladi. Sinonimlar esa matnda turli vazifalarni bajarishi mumkin. Sinonimlardan foydalanish matnda takrorlarning oldini olishga yordam beradi. Sinonimlar kuchaytiruvchi va orttirma funksiyaga ega bo'lishi mumkin. Sinonimlar tushuntirish, aniq va hissiy ekspressiv funksiyani bajaradi. Ular, shuningdek, efemistik tavsif manbalari bo'lib xizmat qiladi. Sinonimlar orasidagi semantik va sintaktik farqlarni aniqlash uchun distributiv tahlil ishlatiladi. Bu o'rinda distributiv tahlilning vazifasi har bir sinonim uchun maxsus tarqalish munosabatlarini aniqlashdan iborat. Distributsiya sintaktik, semantic va leksik doirada o'rganiladi. Antonimlar ifoda jihatiga ko'ra har xil bo'lishi lozim. Antonim leksemalar bir asosdan yasalgan bo'lishi mumkin, bunda leksema yasovchi affikslar o'zaro antonim bo'ladi. Demak, antonimlar boshqa-boshqa leksema bo'lishi kerak.

Sinonimlarda ham shunday. Ba'zan leksemaning leksik ma'nolari o'zaro zidlanish hosil etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Christiane Wanzeck. Lexikologie. Vandenhoeck-Ruprecht. Göttingen, 2010.
2. Dietrich Busse. Semantik. Böhlau Verlag. Wien, 2009.
3. Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache: Berlin. Dudenverlag, Berlin, 2014.
4. Erich und Hildegrad Bulitta. Wörterbuch der Synonyme und Antonyme. Fischer Taschenbuch. Frankfurt am Main, 2020.
5. Frank Palmer. Semantik. Eine Einführung. München, 1977.
6. Langenscheidt. München. Langenscheidt, 2019.
7. Sebastian Löbner. Semantik. De Gruyter. Berlin, 2015.

